



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehnonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITV V AGRAPHOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZELENOY EKONOMIKI UZBEKISTANA	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



AHOLI ISTE'MOL MADANIYATI VA MILLIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	118
Rustamov Sheraz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQARISH OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: KOBБ-DOUGLAS MODEL	
ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS	
BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ	
МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ	
ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА	
РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN	
FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА:	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG'ALLIKNI MONETAR VA KO'P O'LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA	
IQTISODIY O'SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o'g'li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING	
USTUVOR YO'NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA	
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o'g'li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC	
LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ	
ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME'MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR,	
ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhiddin Husniddin o'g'li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING	
FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH	
ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR	
VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR

Qosimova Gulyar Axmatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrası professori, DSc

kasimovagulyora1960@gmail.ru

0000-0002-9997-6104

Annotatsiya. Mazkur maqolada natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish uslubining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ko'rsatilgan. Davlat budjeti mablag'larining samaradorligi va natijadorligini oshirishda maqsadli indikatorlardan foydalanish masalalari o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida “natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish” uslubini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat moliyasi, davlat budjeti, budjet jarayoni, ijtimoiy soha xarajatlari, raqamli iqtisodiyot, o'rta muddatli budjetni rejalashtirish, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish.

Abstract. This article examines the socio-economic essence of the results-oriented budgeting method. The issues of using target indicators to improve the efficiency and effectiveness of state budget funds were studied. Scientific conclusions are provided, and practical proposals are developed for improving the results-oriented budgeting method in the Republic of Uzbekistan.

Key words: public finance, state budget, budget process, social expenditures, digital economy, medium-term budget planning, results-oriented budgeting.

Аннотация. В данной статье показана социально-экономическая сущность метода бюджетирования, ориентированного на результат. Изучены вопросы использования целевых индикаторов для повышения эффективности и результативности использования средств государственного бюджета. Даны научные выводы, а также разработаны практические предложения по совершенствованию метода бюджетирования, ориентированного на результат, в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: государственные финансы, государственный бюджет, бюджетный процесс, расходы социальной сферы, цифровая экономика, среднесрочное бюджетное планирование, бюджетирование, ориентированное на результат.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha vazirlik, idora va mahalliy davlat hokimiyati organlarining birinchi darajali xarajatlarni, davlat dasturlari va hududlarni rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirishdagi javobgarligini oshirish, manbasi aniq bo'lmagan tadbirlarni amalga oshirmaslik va budjet intizomini yanada qat'iyalashtirish zarur.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va budjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budjet tizimining shaffofligini oshirish, Davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish, davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish talab etiladi.

Davlat moliyasini boshqarish sohasida amalga oshirilgan islohotlar va erishilgan natijalarga qaramasdan, sohani yanada takomillashtirishni talab etadigan bir qator ustuvor yo'nalishlar mavjud. Jumladan, budjet intizomini ta'minlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish, o'rta muddatli budjetlashtirishda strategik ustuvorlikni ta'minlash, davlat xarajatlari va investitsiyalar samaradorligi hamda natijadorligini oshirish, budjetning samarali g'azna ijrosini ta'minlash, fiskal axborot sifati va hisobdorlikni yanada oshirish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlar jarayonida “natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish” bo'yicha tizimli adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. O'rni kelganda shuni ta'kidlash kerakki, “natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish” xorijiy adabiyotlarda texnologiya, model, uslubiyot, usul, tizim va mexanizm sifatida o'rganilgan.



Budjetni rejalashtirish boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, davlatning pul mablag'larini tashkil etish, taqsimlash, qayta taqsimlash va ishlatish jarayonlarini rejali boshqarishdir, degan qarashlar ham mavjud. "Budjetni rejalashtirish jarayoni boshqarishning barcha bosqichlaridagi eng muhim bosqichdir. Budjetni rejalashtirishda budjet daromadlarining manbalari, xarajatlarning yo'nalishlari aniqlanadi. Davlatning ijtimoiy va siyosiy vazifalari moddiy ko'rinishga keltiriladi va boshqaruv organlariga ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar yuklanadi" [3].

Tretyakov P.I. tomonidan ta'lim tizimini boshqarishda "natijaga ko'ra boshqarish" yondashuvi taklif qilingan. "Natijaga ko'ra boshqarish deb tashkilotning barcha a'zolari tomonidan belgilangan va kelishilgan natijalarga erishishni ta'minlovchi boshqarishga aytiladi. Tashkilot rahbari va bo'ysunuvchi shaxslar muayyan natijani belgilaydi, mazkur natijaga erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni tanlaydi" [4].

Tadqiqotchi Z. Xushmuratov [7] tomonidan sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarining maqsadli indikatorlari ijrosi bo'yicha hisobotlarni shakllantirish mexanizmlari, maqsadli indikator ko'rsatkichlarini monitoring qilish va baholash tartibi tahlil qilingan. Maqsadli indikatorlar ijrosi bo'yicha hisobotlarni markazlashtirilgan va standartlashtirilgan elektron tizim orqali shakllantirish yo'llari to'g'risida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar keltirilgan.

Iqtisodchilar N.D. Emirov, A.U. Emirovalarning fikriga ko'ra, "Xarajatlarni boshqarish texnologiyasida budjet xarajatlari kutilayotgan natijalar bilan asoslanmaydi, xato va kamchiliklar, budjetni boshqarish muammolari haqiqiy va rejaviy ko'rsatkichlarga muvofiq nazoratni amalga oshirishda ko'rinadi" [6]. "Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" texnologiyasi quyidagilarni ko'rsatadi: hisobot davri yakunida budjet tashkiloti faoliyati natijalari ko'rsatkichlari — davolangan bemorlar soni, oliy o'quv yurtiga kirgan va olimpiadada g'olib bo'lgan o'quvchilar soni; budjet tashkiloti faoliyati natijasi birligiga to'g'ri keladigan budjet mablag'lari hajmi. Bu holatda budjet xizmatini ko'rsatish uchun talab qilinadigan budjet mablag'lari miqdorini quyidagi iqtisodiy-matematik modelda yaqqol ko'rish mumkin.

$$B_i = R_i \times N_i + Bo_i$$

R_i — i ko'rinishdagi xizmat ko'rsatishda faoliyat natijasining ko'rsatkichi.

N_i — foydali natija birligiga mos hisoblangan moliyaviy resurslarning me'yoriy darajasi.


Bo_i — ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan doimiy xarajatlar summasi.

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda, har bir bosqichning ustuvor taraqqiyot vazifalarini to'liq bajarishda davlat budjeti ham muhim ahamiyat kasb etadi va ma'lum ijtimoiy vazifalarni bajaradi.

Prognoz ko'rsatkichlari bilan haqiqatda ijro ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq, ya'ni budjetni prognozlashtirishdagi xatoliklarning katta bo'lishi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda uzilishlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Budjet xarajatlarning rejalashtirilganidan oshib ketishi budjet defitsitini keltirib chiqaradi. Budjet daromadlari bo'yicha reja ko'rsatkichlarining to'liq bajarilmasligi esa ayrim ijtimoiy xarajatlarning qisqartirilishiga olib keladi.


Moliya yili boshida choraklar kesimida rejalashtirilgan davlat budjeti xarajatlarga chorak yakuni bo'yicha ijrodan kelib chiqib, tuzatish va o'zgartirishlar kiritiladi. Shu orqali davlat budjeti xarajatlari tarkibida ishlatilmay qolgan mablag'lar boshqa maqsadli yo'nalishlarga sarflanadi.



1-rasm. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni tashkil qilish [10]



“Smetali rejalashtirishda budjetdan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xizmatlar — ta’lim va tibbiy xizmat natijalarini aniqlash imkoniyati juda murakkab kechadi. Mazkur tizimda amalda sarflangan xarajatlarning o’zi va tejalgan mablag’gina natijalar sifatida qabul qilinadi. Mazkur yondashuv budjetdan moliyalashtirishning samaradorligini aniqlash imkoniyatini bermaydi, faqat moliyalashtirishning rejalashtirilgan va amaldagi summasini taqqoslash imkonini beradi, xolos” [3].



2-rasm. Budjet jarayonini isloh qilish maqsadlari va asosiy yo’nalishlari [8]

Fikrimizcha, “natijaga yo’naltirilgan budjetlashtirish” (NYB) texnologiyasiga davlat xarajatlarini boshqarish islohotlari nuqtayi nazaridan yondashish o’rinli bo’ladi. Budjet amaliyotida yetakchilik qilayotgan xarajatlar smetasini rejalashtirishdan farqli o’laroq, budjet xarajatlarini rejalashtirishning dasturiy-maqsadli budjetlashtirish uslubidan foydalanish davlat budjeti mablag’larini boshqaruvchilar faoliyatini ijtimoiy ahamiyatga molik, miqdor jihatidan o’lchash mumkin bo’lgan natijalarga yo’naltirish va belgilangan maqsad hamda natijalarga erishilishining monitoringini amalga oshirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

“O’zbekistonda moliyaviy-budjet sohasini isloh qilish va milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini samarali rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifalardan biri — budjet jarayonini zamonaviy, natijaga yo’naltirilgan tamoyillar asosida tashkil etishdir. Ilgari mamlakatimizda keng qo’llanilgan va resurs-xarajatlarga e’tiborni markazlashtiradigan an’anaviy budjetlashtirish modeli samaradorlik va natijadorlikni ta’minlashda cheklavlarga ega ekanligi kuzatilmoqda. Budjetlashtirish tanqis resurslardan optimal foydalanishni ta’minlash uchun budjet tashkiloti faoliyatini rejalashtirish, xarajatlarni amalga oshirish va nazorat qilish vositasidir” [5].

O’zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatish bilan birga, mamlakat ichida iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Iqtisodiy rivojlangan demokratik davlat qurishda budjet tizimini boshqarish muhim o’rin tutadi.



Respublikamizda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va ekologik vazifalarini bajarishi uchun markazlashgan moliyaviy mablag'larga ega bo'lish zaruriyati kuchayib bormoqda. Davlat budjeti mablag'lari davlatning o'z vazifalarini bajarish borasidagi tadbirlarini moliyalashtiradigan markazlashtirilgan pul mablag'laridir.

Quyidagi 2-rasmda budjet jarayonini isloh qilish maqsadlari va asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, qiyosiy taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganlaridek, "bundan buyon davlat xaridlarida tovar, ish va xizmatlarni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish mumkin bo'lgan holatlar faqat qonun bilan belgilanadi" [2].

Fikrimizcha, budjet xarajatlarini rejalashtirishning mazkur usulidan foydalanish budjet tashkilotlarida moliyaviy menejmentning idoraviy tamoyillari sifatini ta'minlashni ham nazarda tutadi. Amaliyotda budjet xarajatlari samaradorligini oshirishda mavjud resurslarga qarab davlat xaridi, tanlov va ochiq tender, g'aznachilik texnologiyalari, ichki nazorat hamda ichki auditning ta'sirchanligi oshiriladi.

Turli darajadagi mahalliy budjetlar xarajatlarining natijadorligini baholashda budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning budjet mablag'larini o'zlashtirishi, shuningdek, g'aznachilikda qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlar hisobga olinadi.

Budjet dasturlarini ishlab chiqish uslubiyoti, ular bilan bog'liq samaradorlik ko'rsatkichlari hamda hisobdorlik takomillashtiriladi. Shuningdek, mazkur yo'nalishda band bo'lgan vazirlik, idora va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mutaxassis xodimlarining salohiyatini oshirish bo'yicha treninglar o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Davlat budjeti xarajatlarining barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga muvofiqligi bo'yicha Davlat budjeti xarajatlarini "yashil" budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash — markirovkalash va genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish uslubiyotlari hamda ularni amaliyotga tatbiq qilish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Barcha vazirlik va idoralar budjet dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lib, budjet mablag'larining natijadorligi oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganlaridek, "...Har bir vazirning siyosiy maqomi, Prezident, Parlament va jamoatchilik oldidagi mas'uliyati oshiriladi, bunga mos ravishda javobgarligi ham kuchaytiriladi. Ularga aholi muammolarini hal qilish uchun yetarli vakolat va mablag' beriladi, vazirliklar faoliyatida ochiqlik, qonuniylik, natijadorlik va sifat asosiy mezon bo'ladi" [1].


1-jadval. Budjet mablag'lari samaradorligi va natijadorligini oshirishda maqsadli indikatorlardan foydalanish [9].

	Yillar	Maqsadli indikatorlar, foizda
1.	2023-yil	15
2.	2024-yil	20
3.	2025-yil	30
4.	2030-yil	60

O'zbekiston Respublikasida maqsadli indikatorlar asosida budjet mablag'lari samaradorligi va natijadorligi oshiriladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun 5 ta samaradorlik ko'rsatkichidan biri sifatida 2030-yilga qadar "natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" amaliyotiga to'liq o'tish ko'zda tutilgan. Yillik budjetni shakllantirishda "natijaga yo'naltirilgan budjet" tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi.

"Natijaga yo'naltirilgan budjet" tizimi orqali Davlat budjeti xarajatlarining 2023-yilda 15 foizini, 2024-yilda 20 foizini, 2025-yilda 30 foizini, 2030-yilga kelib esa 60 foizini maqsadli indikatorlar bilan qamrab olish nazarda tutilgan. Budjet amaliyotida "natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish"ning ijobiy tomonlari va afzalliklari yaqqol namoyon bo'lmoqda (1-jadval).

**MAQSADLI INDIKATORLAR, FOIZDA**

3-rasm. Budget mablag'lari samaradorligi va natijadorligini oshirishda maqsadli indikatorlardan foydalanish [9]

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda tanlangan maqsadlar va vazifalar Budjetnomada hamda budjetga tegishli hujjatlarda aks ettirilishi kerak. Albatta, tanlab olingan maqsadlar fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga ko'maklashishi lozim.

Budjet xarajatlari samaradorligini ta'minlash vazifasi har qanday milliy iqtisodiyot va hukumatlar oldida turgan, doimo dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masala hisoblanadi. Davlat budjeti mablag'larini maqsadli va samarali sarflash, budjet xarajatlarini optimallashtirish hamda natijadorlikni oshirish borasida turli mamlakatlar tajribasini o'rganish, O'zbekiston uchun ahamiyatli jihatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy iqtisodchi olimlar ta'kidlaganidek, "budjet xarajatlarining samaradorligi davlat boshqaruvining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi".

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti xarajatlarini rejalashtirishda o'rta muddatli budjetlashtirish va natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish uslubini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirish natijasida quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy takliflar shakllantirildi.

"Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" (NYB) texnologiyasiga budjet xarajatlarini boshqarish islohotlari nuqtayi nazaridan yondashish o'rinni bo'ladi. Budjet amaliyotida yetakchilik qilayotgan xarajatlar smetasini rejalashtirishdan farqli o'laroq, budjet xarajatlarini rejalashtirishning dasturiy-maqsadli budjetlashtirish uslubidan foydalanish davlat budjeti mablag'larini boshqaruvchilar faoliyatini ijtimoiy ahamiyatga molik, miqdor jihatidan o'lchash mumkin bo'lgan natijalarga yo'naltirish hamda belgilangan maqsad va natijalarga erishish monitoringini amalga oshirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Xarajatlar smetasi asosida boshqarish texnologiyasida budjet xarajatlari kutilayotgan natijalar bilan asoslanmaydi. Xato va kamchiliklar, budjetni boshqarish muammolari haqiqiy va rejaviy ko'rsatkichlarga muvofiq yakuniy nazoratni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladi. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish texnologiyasi quyidagilarni ko'rsatadi: hisobot davri yakunida ijtimoiy sohaga qarashli budjet tashkiloti faoliyati natijalari ko'rsatkichlari — davolangan bemorlar soni, oliy o'quv yurtiga kirgan o'quvchilar soni va olimpiadada g'olib bo'lgan o'quvchilar soni; ijtimoiy sohaga qarashli budjet tashkiloti faoliyati natijalari birligiga mos ravishda ajratilgan budjet mablag'lari hajmi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy soha xarajatlarining samaradorligi masalasini ko'rib chiqishda "samaradorlik" va "natijaviylik" tushunchalari bir xil emas. Natijaviylik — bu natijalarning rejalashtirilgan ko'rsatkichga erishish darajasi, samaradorlik esa natijalarning xarajatlarga nisbati ekanligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fikrimizcha, budjet xarajatlarini rejalashtirishning "natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" usulidan foydalanish budjet tashkilotlarida moliyaviy menejmentning idoraviy tamoyillari sifatini ta'minlashni ham nazarda tutadi. Amaliyotda budjet xarajatlari samaradorligini oshirishda mavjud resurslarga qarab davlat xaridi, tanlov va ochiq tender, g'aznachilik texnologiyalari, ichki nazorat hamda ichki auditning ta'sirchanligi oshiriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. — 20.12.2022. — URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. — 26.12.2025. — URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
3. Muhamadaliyev M.S. O'rta muddatli budjetlashtirishning afzalliklari // Moliya va bank ishi. Elektron ilmiy jurnal. — Toshkent, 2019. — № 1. — B. 24–29.
4. Tretyakov P.I. Region: upravlenie obrazovaniem po rezultatam. Teoriya i praktika. — Moskva: Novaya shkola, 2001. — 880 s.
5. Primova Nigora Ikrom qizi. Xarajatlar usulidan natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishga o'tish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2025. — Vol. 13. — No. 5. — B. 1–17. — DOI: 10.55439/EIT/vol13_iss5/710
6. Emirov N.D., Emirova A.E. Sistemnaya model innovatsionnogo upravleniya sotsialnoy sferoy. Monografiya. — Moskva: Prospekt, 2016. — 144 s.
7. Xushmuratov Z.I. Sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarining maqsadli indikatorlari ijrosi bo'yicha hisobotlarni shakllantirish, monitoring qilish va baholashdan o'tkazish tartibini takomillashtirish istiqbollari // Moliya va bank ishi. — 10(1). — B. 72–78.
8. Fuqarolar uchun budjet: 2024-yil loyihasi. — Toshkent, 2023. — URL: https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_P_24_uz.pdf
9. Budjetnoma 2024–2026. — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. — URL: https://api.mf.uz/media/document_files/budjetnoma_2024-2026_u7oVHcU.pdf
10. Manba: muallif tomonidan tadqiqot jarayonida o'rganilgan adabiyotlar asosida tayyorlangan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>